XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 22-sentabr VII-32-118-3-49-K/26 Zarbdor tumani

Zarbdor tumanidagi dafn etish joylarini saqlash qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-98-sonli farmoni 2-boʻlimi 3-bandi (b) kichik bandida, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-sonli qaroriga 1-ilova, “Dafn etish joylarini saqlash, ulardan foydalanish va qabr usti yodgorliklarini oʻrnatish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomining 2-boʻlim 6-bandi 3-xat boshida “Dafn etish joylarini saqlash qoidalari xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi” deb belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “Oʻzbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-98-sonli farmoni hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-sonli qarori ijrosini taʻminlash maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida” gi Qonunining 6- va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Zarbdor tumanidagi dafn etish joylarini saqlash qoidalari (keyingi oʻrinlarda – qoidalar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Zarbdor tumani Qurilish va uy-joy kommunal boʻlimi (v.v.b. A.Esirgapov), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi

boʻlimi (N.Gairov), Ekologiya va iqlim oʻzgarishi boʻlimi (J.Abduholiqov), Obodonlashtirish boshqarmasi (O.Xolmonov)larga:

qoidalarning barcha qabristonlarda bir xilda ijro etilishi;

qoidalarda belgilangan normalar mahalla fuqarolar yigʻinlari raislari (oqsoqollar) bilan birgalikda doimiy targʻib qilib borilishi taʼminlansin.

3. Kadastr agentligi tuman boʻlimi (R.Kushbakov) tuman hududida mavjud, shuningdek, yangi tashkil qilinadigan qabristonlarning kadastr hujjatlari qonunchilikda belgilangan talablar asosida yuritilishini taʼminlasin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (Oʻ.Sulaymanov)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini taʼminlash tuman hokimining oʻrinbosari A.Erjigitov zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xoʻjaligi va ekologiya masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi (S.Xadjikulov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **ARALOV ANVAR MAMADALIYEVICH**

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2026-yil 22-sentabrdagi
VII-32-118-3-49-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Zarbdor tumanidagi dafn etish joylarini saqlash qoidalari

I. Umumiy qoidalar

1. Zarbdor tumanidagi dafn etish joylarini saqlash qoidalari (keyingi oʻrinlarda – qoidalar) tegishli dafn etish joylarini (keyingi oʻrinlarda – qabriston) va qabr usti yodgorliklari inshootlarini saqlash, ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

2. Qabristonlarni obodonlashtirish, saqlash va ulardan foydalanish, dafn etish xizmatlari koʻrsatish boʻyicha bevosita faoliyat Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tumanning mahalliy aholisi, shuningdek boshqa millatlar va xalqlarning mavjud an’analari, urf-odatlari va udumlariga muvofiq amalga oshiriladi.

II. Qabristonlarni saqlash

3. Qabrlar, sagʻanalar, shuningdek dafn etishni amalga oshirishga moʻljallangan boshqa binolar va inshootlarni barpo etish uchun ekologik, sanitariya, shaharsozlik va boshqa meyorlarga hamda mazkur qoidalarga muvofiq ajratilgan yer uchastkalari qabristonlar hisoblanadi.

4. Qabristonlar qonun hujjatlariga muvofiq moddiy-madaniy meros obektlari jumlasiga kiritilishi mumkin.

5. Obodonlashtirish boshqarmasiga qabristonlarni zarur darajada saqlash, ulardan foydalanish, dafn etish xizmatlarini koʻrsatish, obodonlashtirish boʻyicha vazifalarni bajarish majburiyati yuklanadi.

6. Har bir qabriston qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan meyorlar boʻyicha tegishli xodimlarga ega boʻlishi kerak.

7. Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan qabristonlarni obodonlashtirish, mukammal va joriy ta’mirlash, ularni zarur darajada saqlash mahalliy budjet mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi.

8. Qabristonlarni saqlash va obodonlashtirishda, Obodonlashtirish boshqarmasi bilan kelishilgan holda, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy xayr-ehsonlaridan va fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari koʻmagida hashar yoʻli bilan oʻrnatilgan tartibda foydalanish mumkin.

9. Qabristonning nomi aks ettirilgan asosiy kirish joyida (ichki tomonida) quyidagilar oʻrnatiladi:

ma’muriy va boshqa binolar, yoʻllar, xiyobonlar, tarixiy va memorial qabrlar, umumiy foydalanish hojatxonalari va boshqa obyektlarning joylashishi belgilangan holda qabristonning sxematik tarxi;

qabristonning ish jadvali (ziyorat qilish qoidalari) va boshqa yoʻl-yoʻriq hujjatlari qoʻyilgan koʻrgazma taxta;

fuqarolarga xizmat koʻrsatish boshqarmasi rahbariyati, qabriston uchun mas’ul

boʻlgan xodimlar va aloqa bogʻlash telefonlari, qabr qazish va dafn etish xizmatlari uchun tariflar hamda mazkur qoidalar koʻrsatilgan ma’lumotlar.

10. Qabristonlar har kuni ziyoratlar va dafnlar uchun ochiq boʻlishi kerak.

11. Qabriston hududida quyidagilar taqiqlanadi:

jamoat tartibi va sokinlikni buzish, mast-alast, giyohvandlik va boshqa turdagi narkotik moddalar ta’siri holatida boʻlish;

qabr usti yodgorliklariga va yashil oʻsimliklarga shikast yetkazish;

quruq oʻt, barg, shox-shabbalarni yoqish;

mevali koʻchatlar ekish;

mol va boshqa uy jonivorlarini boqish;

qishloq xoʻjaligi ekinlarini oʻstirish;

qabristonlarga transport vositasida kirish (nogiron va keksalarni, qabriston uchun zarur jihoz va buyumlarni olib kirish bundan mustasno).

12. Qabristonning mas’ul xodimlari, dafnlarni va oʻrnatilayotgan qabr usti yodgorliklarini raqamlangan va ip bilan tikilgan hamda fuqarolarga xizmat koʻrsatish boshqarmasi tomonidan muhrlangan daftarlarga qayd etishlari, shuningdek, elektron bazani yuritish uchun Obodonlashtirish boshqarmasiga ma’lumot taqdim etishlari shart.

13. Dafn etishni amalga oshirish huquqini beradigan barcha hujjatlar - fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari tomonidan beriladigan oʻlim haqidagi ma’lumotnoma va boshqa tegishli hujjatlar belgilangan tartibda tikilishi va saqlanishi kerak.

14. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari tomonidan beriladigan oʻlim haqidagi ma’lumotnoma Obodonlashtirish boshqarmasi arxivida saqlanishi shart.

15. Obodonlashtirish boshqarmasi va qabristonning mas’ul xodimlari quyidagilarni ta’minlashi shart:

qabriston hududida zarur darajadagi tartibni ta’minlash va mazkur qoidalar hamda boshqa tegishli qonun hujjatlarining talablarini qat’iyan bajarish;

bosh xiyobon, asosiy va ikkinchi darajali yoʻllarda toʻsiqsiz yurish va oʻtish imkoniyatini (qishda qordan tozalash, muzni parchalash, qum sepish, yozda oʻrilgan oʻtlarni oʻz vaqtida olib ketish va shu kabilarni) ta’minlash;

eskirgan (qurigan) daraxtlarning agʻdarilishi va qabr usti yodgorliklarini shikastlashiga yoʻl qoʻymaslik uchun ularning oʻz vaqtida kesilishini ta’minlash ishlari tuman Ekologiya va iqlim o‘zgarishi boʻlimining xulosasi va Obobdonlashtirish boshqarmasi bilan kelishgan holda amalga oshirish;

umumiy foydalanish joylarini toza saqlash, qabristondan chiqqan chiqindilar uchun maxsus yashik va qutilar oʻrnatish hamda chiqindi toʻplash joylari tashkil etish, chiqindilarni qabriston hududidan oʻz vaqtida olib chiqilishini ta’minlash;

muhandislik inshootlarining zarur darajada ishlashini ta’minlash, tashqi toʻsiq, bino va inshootlar, yoʻllar, muhandislik tarmoqlari va inshootlarining joriy va mukammal ta’mirlanishini amalga oshirish hamda koʻkalamzorlashtirish;

barcha turdagi yashil oʻsimliklarni sugʻorish va parvarishlashni ta’minlash, ularni

yangilash;

jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmanomalariga koʻra dafn uchun ushbu qoidalar bilan belgilangan oʻlchamda joy (uchastka) bepul berish;

marhumlarni qabr qazish meyorlari va qoidalariga rioya etgan holda dafn etishni ta’minlash;

qabrning roʻyxat raqami koʻrsatilgan beton ustuncha oʻrnatish;

anjomlarning (belkurak, panshaxa, paqir, xokandoz, supurgi, zambil va hokazolarning) yetarli miqdorda boʻlishini va ularning fuqarolarga qabrlarga qarash uchun bepul tilxat bilan berilishini ta’minlash;

qabristonda zarur darajadagi tartibni ta’minlash boʻyicha, shu jumladan, xotirlash kunlari, umumxalq hasharida qabrlarni suvash va boshqa tadbirlarni tashkil etishda fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari bilan hamkorlik qilish;

xizmatlar uchun tegishli tartibda tasdiqlangan dafn etish xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha tariflar miqdoriga koʻra hisob-kitob qilgan holda jismoniy va yuridik shaxslarning qabristonda koʻrsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini oʻz vaqtida va sifatli bajarish;

qabr usti yodgorliklarini oʻrnatish tartibiga binoan ularning oʻlchamlarini, hududni koʻkalamzorlashtirish uchun daraxt va butalarning turlarini toʻgʻri tanlashga rioya etilishini nazorat qilish;

dafn etilganning qarindoshlariga ta’mirtalab qabr usti yodgorligi toʻgʻrisida yozma xabar qilish va uni tuzatishni talab qilish;

goʻr qazuvchi ishchilarga sanitariya qoidalarini hamda diniy va mahalliy an’analarni hisobga olib, meyorlarni qat’iyan bajargan holda ishlarni bajarishning xavfsiz usullarini oʻrgatishni tashkil qilish;

qabr usti yodgorliklarining saqlanishini ta’minlash, ular oʻgʻirlangan, buzilgan, vayron qilingan taqdirda huquqni muhofaza qilish organlarini va yodgorliklarning egalarini xabardor qilish;

yongʻin xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta’minlash, yongʻinga qarshi zarur miqdordagi anjomlar bilan butlash;

qabristonning butun hududini - qabrlar usti bilan har yili kamida ikki marta (Xotira kuni va diniy bayramlar arafasida) har tomonlama supurib-sidirishni amalga oshirish.

16. Qabriston xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun ushbu qoidalar bilan belgilangan oʻlchamda bepul joy (uchastka) olish;

sanitariya qoidalari hamda boshqa qoidalar va meyorlarga zid boʻlmagan diniy marosimlar va mahalliy an’analarga rioya etgan holda dafn etish udumini bajarish;

marosim xizmatlaridan foydalanish va ularga tegishli tartibda tasdiqlangan dafn etish xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha tariflar miqdoriga koʻra haq toʻlash;

buyurtirilgan xizmatlarning oʻz vaqtida va sifatli bajarilishini qabriston ma’muriyatidan talab qilish;

qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan bepul foydalanish;

Obodonlashtirish boshqarmasi bilan kelishgan holda yaqinlari va qarindoshlarining qabrlariga ushbu qoidalar bilan belgilangan oʻlchamda qabr usti yodgorliklarini oʻrnatish.

III. Qabrlarni saqlash va qabr usti yodgorliklarini oʻrnatish

17. Dafn etishni amalga oshirgan jismoniy va yuridik shaxslar qabrlar hamda qabr usti yodgorliklarini zarur holatda saqlashi shart.

18. Obodonlashtirish boshqarmasi va qabristonning mas'ul xodimlari bilan kelishgan holda, dafn etilgan joy (uchastka) doirasida, uzunligi 1,5 metr, eni 1 metr va balandligi 0,5 metr (qabr ustidagi tuproq tepaligi balandligi darajasida), yozuvlar uchun vertikal plitaning balandligi 1 metrgacha boʻlgan oʻlchamda qabr usti yodgorliklarini oʻrnatishga (qurishga) yoʻl qoʻyiladi.

19. Qabr atrofiga metall va boshqa ashyolardan yasalgan toʻsiqlarni oʻrnatish, qoʻshni qabrlarning hududlarini va boʻsh joy (uchastka)larni egallab oladigan qabr usti yodgorliklarini barpo etish taqiqlanadi.

20. Byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega boʻlgan inshootlarni oʻrnatishga faqat loyiha-smeta hujjatlari hamda Obobdonlashtirish boshqarmasi bilan kelishgan holda ruxsat beriladi.

21. Qabr usti yodgorliklarining joylashtirilishi, shuningdek daraxt va butalar oʻtqazish ishlarini amalga oshirishdan avval qabriston ma'muriyati bilan kelishiladi.

22. Qabr usti yodgorliklarining oʻrnatilishi qabristonning mas'ul xodimlari tomonidan qabr usti yodgorliklarini roʻyxatdan oʻtkazish daftarida roʻyxatdan oʻtkazilib, unda qabr joylashgan chizma (xarita), qatori va raqami, dafn etilgan kishining familiyasi, ismi-sharifi, yodgorlik oʻrnatilgan sana, yodgorlikning qisqacha tavsifi (yodgorlikning hajmi, rangi va koʻrinishi haqidagi ma'lumotlar), uni oʻrnatgan shaxslarning manzili, familiyasi va ismi-shariflari koʻrsatiladi.

23. Barcha qabr usti yodgorliklari ularni oʻrnatgan jismoniy va yuridik shaxslarning mulki hisoblanadi.

24. Obodonlashtirish boshqarmasi tashabbusi bilan qabr usti yodgorliklarini buzib tashlashga yoʻl qoʻyilmaydi, eskirib ketgan qabr usti yodgorliklarini egalari tuzatishdan bosh tortgan, ular belgilangan tartibda egasiz deb topilgan hollar bundan mustasno.

25. Qabr usti yodgorliklarini buzib tashlash, Obodonlashtirish boshqarmasi koʻrsatmasiga asosan qabr usti yodgorliklarining elementlari albatta tavsiflangan, qabriston joylashgan hududdagi oʻzini-oʻzi boshqarish organi bilan kelishilgan holda buzib tashlash dalolatnomasi asosida, qabriston xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

IV. Dafn etish tartibi

26. Dafn etish – marhumning jasadini va saqlab qolingan tana qismlarini sanitariyaga oid hamda boshqa meyorlar va qoidalarga zid boʻlmagan urf-odatlar va an'analarga muvofiq yerga koʻmish yoʻli bilan amalga oshiriladi. Dafn etish muayyan diniy konfessiya qabristoni hududida bajariladi.

27. Marhumni dafn etish er (xotin), ota-ona, farzandlar va boshqa qarindoshlar yoki marhumning qonuniy vakili, bunday shaxslar boʻlmasa – zimmasiga dafnni amalga oshirish majburiyatini olgan boshqa shaxsning arizasiga asosan amalga oshiriladi.

28. Dafn etishga ruxsatni qabristonning mas'ul xodimi faqat fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari tomonidan berilgan oʻlim toʻgʻrisidagi ma'lumotnoma taqdim etilganidan keyingina beradi.

29. Qabristonlarda dafn etish uchun joy (uchastka) bepul va qat'iyan sanitariyaga doir va boshqa qoidalar hamda meyorlarga muvofiq ajratiladi.

30. Istisno tariqasida, marhumning xohish irodasini bajarish maqsadida qarindoshlarning roziligi bilan uni qabriston muddati (tuproq xususiyatiga qarab 10-20 yil) tugagan yaqin qarindoshlari qabriga, qabrning pastiga koʻmish yoʻli bilan dafn etish mumkin, bunda qarindoshligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi.

31. Qabristonning mas'ul xodimlari har bir dafn etishda roʻyxatdan oʻtkazish daftariga quyidagi ma'lumotlarni qayd etadilar:

dafn etish yili, oyi, kuni, qabrning sektori, uchastkasi, qatori va raqami, familiya, ismi-sharif, manzil, tugʻilgan yil, oy va kun, oʻlim sababi va uning yil, oy va kuni, oʻlim toʻgʻrisidagi hujjatning sanasi va kim tomonidan berilganligi, marhumning qarindoshlari yoki qonuniy vakilining, agar bunday shaxslar boʻlmasa - zimmasiga dafn etish majburiyatini olgan boshqa shaxsning familiyasi, ismi-sharifi, manzili.

32. Oʻta xavfli yuqumli kasalliklar sababli oʻlgan shaxslarni dafn etish tartibini Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi belgilaydi.

33. Dafn etilgan shaxslarni saqlanib qolgan tana qismlarini olish va ularni yangi joyga olib oʻtish mumkinligi haqidagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasining xulosasiga asosan, qumloq va kam tuproqli joy (uchastka)larda dafn etilgandan keyin kamida bir yil oʻtgach, chirish va mineralga aylanish jarayonlari sekin boʻladigan nam tuproqlarda esa – kamida uch yil oʻtgach yoʻl qoʻyiladi. Bu ish Obodonlashtirish boshqarmasi vakillari va manfaatdor shaxslar ishtirokida amalga oshiriladi. Dafn etilgan shaxslarni koʻchirib, qayta dafn etish yilning sovuq vaqtida, kunduzi, amalga oshirishi tavsiya qilinadi.

34. Saqlanib qolgan tana qismlarini olish va qabrni tugatish toʻgʻrisida qabristonning dafnlarni roʻyxatdan oʻtkazish daftariga tegishli belgi qoʻyiladi.

35. Eksgumatsiya – Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

36. Vafot etgan shaxsning eri (xotini), ota-onasi, farzandlari va boshqa qarindoshlari yoki qonuniy vakili yoxud zimmasiga dafn etish majburiyatini olgan boshqa shaxs boʻlmagan taqdirda ichki ishlar organlari tomonidan marhumning shaxsi aniqlanganidan keyin uni dafn etish, shuningdek shaxsi ichki ishlar organlari tomonidan aniqlanmagan marhumni dafn etish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan sud-tibbiy ekspertiza davlat muassasalari bilan tuzilgan shartnoma asosida, mahalliy budjet mablagʻlari hisobiga amalga oshiriladi.

V. Qabrlarning tuzilishi

37. Dafn etishlar faqat ishlab turgan qabristonlarda, navbat tartibida uchastkalar ajratish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

38. Har bir marhum alohida qabrga dafn etiladi.

39. Qabrlar oraligʻidagi masofa uzun tomonlari boʻyicha 1 metrdan, qisqa tomonlari boʻyicha esa - 0,5 metrdan koʻp boʻlmasligi kerak.

40. Har bir alohida qabr uchun oʻlchami oʻrtacha 2x1 metr boʻlgan joy (uchastka) ajratiladi. Jumladan:

lahad qaziladigan an'anaviy musulmon qabrlari uchun yer sathidan kamida 1,5 metr;

dafn etish yogʻoch tobutlarda amalga oshiriladigan yevropaliklarning qabrlari uchun yer sathidan tobut qopqogʻiga qadar kamida 1,5 metr;

yer osti sagʻanalari koʻrinishida qaziladigan yahudiylar qabrlari uchun yer sathidan marhum yotqiziladigan joyga qadar kamida 1,5 metr;

yer sathida "sagʻana" (dahma) koʻrinishida qaziladigan musulmon qabrlari uchun (yer osti suvlari sathi yuqori boʻlsa) dahma asosining balandligi yer (yer osti suvlari) sathidan boshlab 0,2 — 0,4 metr (biroq 0,5 metrdan koʻp emas) doirasida boʻlib, sagʻana asosi yer osti suvlari kirishidan albatta himoyalanishi kerak.

41. Mahalliy an'analar va urf-odatlarga bogʻliq holda qabrlarning tuzilishi yuqorida sanalganlardan farq qilishi mumkin.

42. Har bir qabr ustidan ("sagʻanalar"dan tashqari) yer sathidan 0,5 metr balandlikda tuproq koʻtarma (tepacha) (koʻtarma qabrni yer usti suvlaridan himoya qilish uchun undan chetga chiqishi kerak) yoki qabr usti plitasi boʻlishi kerak.

43. Yer sathida "sagʻana" koʻrinishida barpo etiladigan musulmon qabrlari (yer osti suvlari sathi yuqori boʻlganda) yer usti suvlari va atmosfera yogʻinlaridan himoyalangan boʻlishi kerak, buning uchun himoya qatlami barpo etilishi kerak va "sagʻana" oʻlchamlarining yer sathida boʻyiga koʻra 2,5 metrgacha, eni boʻyicha 1,5 metrgacha va "sagʻana" asosidan boshlab balandligi 1,5 metrgacha boʻlishiga yoʻl qoʻyiladi, yozuvlar uchun qabr ustidagi vertikal plita balandligi 1 metrgacha boʻlishi lozim.

44. Har bir qabr tepasiga dafndan soʻng majburiy tartibda kichik temir yoki beton ustuncha oʻrnatilib, unda mazkur qabristonning dafnlarni roʻyxatdan oʻtkazish daftaridagi yozuvga muvofiq dafnning roʻyxatdan oʻtkazish raqami koʻrsatilishi kerak.

VI. Qabriston hududini tashkil etish

45. Qabristonning butun hududi oʻralgan boʻlishi kerak. Qabristonlar, odatda, serob mahalliy materiallardan (yigʻma temir-beton, gʻisht, shlakoblok, arralangan va boʻlaklangan toshlar, paxsa va boshqalardan) tiklangan, balandligi 2 metrdan past boʻlmagan, mustahkam toʻsiqqa (devorga) ega boʻlishi lozim.

46. Qabristonning belgilanmagan joylaridan oʻtish yoʻllarini ochish qat'iyan taqiqlanadi.

47. Qabristonning oʻlchamiga bogʻliq holda uning hududida quyidagi bino va inshootlar boʻlishi mumkin:

ma’muriy bino;

xoʻjalik imoratlari (omborxonalar);

jamoat hojatxonalari;

ishchilar uchun xona;

ishchilar uchun yuvinish xonalari;

marosim udumlari uchun bostirma va maydonchalar;

tobut va anjomlar saqlanadigan xonalar;

oʻrindiqlar, axlat qutilari va boshqalar.

48. Qabristonning ma’muriy binosi uning hududida, asosiy kirish joyi yaqinida boʻlishi kerak.

49. Dafn etish uchun va qabrni ziyorat qilishga moʻljallangan narsalar (gullar va boshqalar)ni sotish, odatda, qabristonga kiriladigan asosiy eshik yonida tashkil qilinadi.

50. Barcha qabristonlar telefon aloqasiga ega boʻlishi zarur.

51. Qabriston hududi ziyoratchilar va xizmat koʻrsatuvchi xodimlar tomonidan yashil oʻsimliklarni sugʻorish, maishiy ehtiyojlarini toʻliq ta’minlashga yetarli miqdorda suv bilan ta’minlangan boʻlishi kerak.

52. Suv ta’minoti suv quvuri tarmogʻiga ulanish, qabriston hududi yaqinida maxsus quduqlar qazish, nasos qurilmasi oʻrnatish va yashil oʻsimliklarni sugʻorish uchun sugʻorish suv quvuri yoki irrigatsiya tizimlarini barpo etish yoʻli bilan, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib oʻrnatilgan tartibda hal qilinishi mumkin.

53. Ayrim hollarda xoʻjalik-ichimlik suvi ehtiyojlari va sugʻorish uchun suv ta’minoti suv tashish usuli bilan hal etilishi mumkin.

54. Qabristonlar hududidan xoʻjalik-ichimlik suvi quvuri va suv tarmoqlari hamda boshqa muhandislik-kommunikatsiya magistral tarmoqlarini oʻtkazish qat’iyan taqiqlanadi.

55. Katta qabristonlar hududida suvni ochiq manbalardan (daryolar, koʻllar, kanal va ariqlardan) va yopiq suv manbalaridan (artezian quduqlardan) suv oladigan sugʻorish suv quvuri tarmogʻini oʻrnatish, zarur hollarda sugʻorish maqsadlari uchun metall suv sigʻimlari va ochiq ehtiyot rezervuarlari (havzalar) barpo etish tavsiya qilinadi.

56. Qabriston hududi majburiy tartibda elektr energiyasi bilan ta’minlanishi kerak.

57. Qabristonlarda kirish joyi (eshigi), bosh xiyobonlar va asosiy yoʻllar yoritilgan boʻlishi lozim.

VII. Yakunlovchi qoidalar

58. Mazkur qoidalar talablarining buzilishida aybdor boʻlgan shaxslar belgilangan tartibda javob beradilar.